

ZAMONAVIY ORTODONTIK APPARATLAR HAQIDA ILMIY MAQOLA

Mirvohidova.N

EMU Universiteti,

Toshkent, O'zbekiston

Kirish

Ortodontiya — bu stomatologiyaning tishlar va jag'larning noto'g'ri joylashuvi, tish qatoridagi nuqsonlar va tish-yuz skeletidagi nomutanosibliklarni aniqlash, oldini olish va davolash bilan shug'ullanadigan sohasi. Ortodontiya so'nggi yillarda texnologik rivojlanish tufayli sezilarli darajada o'zgardi. An'anaviy metall braketlar o'rni yanada qulay, samarali va estetik ko'rinishga ega zamonaviy apparatlar egallamoqda. Ushbu maqolada bugungi kunda keng qo'llanilayotgan self-ligating braketlar, keramik braketlar, lingval braketlar va aligner tizimlarining afzalliklari, kamchiliklari va qo'llanish sohalari yoritiladi. Bu maqoladan keyin o'zingizga kerak bo'lgan ortodontik apparatlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

1. Self-ligating breketlar

Self-ligating (o'z-o'zini mahkamlovchi) braketlar elastik ligaturalarsiz ishlaydi. Bu esa ishqalanishni kamaytirib, tishlarning ko'chishini tezlashtiradi.

Afzalliklari:

- Kam bosim va kamroq og'riq
- Tezroq davolash
- Gigiyenik jihatdan qulayroq

Kamchiliklari: yuqori narx va ba'zi klinik holatlarda cheklanganlik.

2. Keramik breketlar

Keramik braketlar tish rangiga mos kelgani uchun bemorlar orasida juda mashhur.

Afzalliklari:

- Estetik ko'rinish
- Mustahkamlik

Kamchiliklari: ko'proq sinuvchanlik va metall braketlarga nisbatan ishqalanishning yuqoriligi.

3. Lingval breketlar

Lingval braketlar tishlarning orqa (lingval) yuzasiga o'rnatiladi.

Afzalliklari:

- Butunlay ko'rinmas
- Estetik talab yuqori bo'lgan bemorlar uchun ideal

Kamchiliklari:

- Moslashtirish qiyinroq
- Nutq vaqtinchalik buzilishi mumkin
- Davolash narxi yuqori

4. Alignerlarda davolash (Invisalign va boshqa shaffof alignerlar)

Alignerlar olinadigan shaffof qopqoqchalar bo‘lib, ularda davolash ham estetik, ham qulaydir.

Afzalliklari:

- Ko‘rinmaydi
- Oson tozalanadi
- Olingan holda ovqatlanish mumkin

Kamchiliklari:

- Murakkab maloklüziyalarda har doim samarali bo‘lmaydi
- Bemordan yuqori intizom talab qiladi

Lekin shuni unutmaslik kerakki har bir patsientga ortodont individual yondashuv bilan maslahat beradi va xavfsiz, samarali usulni taklif qiladi.

Xulosa

Zamonaviy ortodontik apparatlar bemorlarga nafaqat estetik, balki funksional jihatdan ham yuqori sifatli davolash imkonini bermoqda. Har bir tizimning o‘ziga xos afzallik va kamchiliklari bo‘lib, apparat tanlovi bemorning klinik holati, yoshiga va estetik talablariga qarab amalga oshiriladi. Ortodontiyada texnologiyalarning rivojlanishi kelajakda yanada qulay va samarali davolash usullarini yaratishga zamin yaratadi. Shuni takidlab o‘tishimiz kerakki, Ortodontiyada faqat shifokor emas balki bemor ham o‘z hissasini qo‘shishi kerak ya‘ni gigiyenaga juda qat‘iy amal qilishi kerak bo‘ladi. Chunki breket tizimi bilan yurgan ko‘plan odamlarda tishda karash va blyashkala to‘planishi kuzatiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Afifi M. Antecedant risk factors and their control in young patients with a first myocardial infarction. Singapore Medical Journal. 2006;47:554–556. – PubMed
2. Bae MH, Kim JH, Jang SY, Park SH, Lee JH, Yang DH, Park HS, Cho Y, Chae SC. Hyponatremia at discharge as a predictor of 12-month clinical outcomes in hospital survivors 273 Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences www.grnjournal.us after acute myocardial infarction. Heart and Vessels. 2017;32:126–133. doi: 10.1007/s00380-016-0854-6. - DOI – PubMed
3. Bingrui W. Evaluation of serum albumin level in coronary artery disease in patients with ACS. 2018. Master’s thesis, Suzhou University, Suzhou, China, 7–10.

4. Burkhardt K, Kirchberger I, Heier M, Zirngibl A, Kling E, von Scheidt W, Kuch B, Meisinger C. Hyponatraemia on admission to hospital is associated with increased long-term risk of mortality in survivors of myocardial infarction. *European Journal of Preventive Cardiology*. 2015;22:1419–1426. doi: 10.1177/2047487314557963. - DOI – PubMed
5. Che J, Li G, Shao Y, Niu H, Shi Y. An analysis of the risk factors for premature coronary artery disease in young and middle-age Chinese patients with hypertension. *Experimental & Clinical Cardiology*. 2013;18:89–92. - PMC - PubMed

